



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 07 | pp. 16-22 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL BOSHQARUV MEXANIZMI



Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich

Toshken davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

<https://orcid.org/0009-0006-2728-9264>

Annotasiya. Maqolada mahalla tadbirkorlik ekotizimining tarkibiy ishtirokchilari, ularning funksional vazifalari va o'zaro hamkorlik mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, resurslar sirkulyatsiyasi, raqamli platformalar, qaytuvchi aloqalar va institutsional muvofiqlashtirish asosida mahallalarda tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish yo'nalishlari ilmiy jihatdan asoslangan. Taklif etilgan konseptual boshqaruv mexanizmi mahallalarda resurslardan samarali foydalanish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va hududiy iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: mahalla, mahallalarda tadbirkorlik, hunarmadchilik, tadbirkorlikni rivojlantirishni boshqarish, ekotizim.

Аннотация. В данном исследовании для научного обоснования организационно-экономических механизмов развития предпринимательства в махаллах были использованы системный, институциональный, экосистемный и структурно-функциональный подходы. Системный подход позволил проанализировать предпринимательскую экосистему махаллы как целостную систему, состоящую из взаимосвязанных субъектов, ресурсов, институтов и механизмов управления. Предложенный концептуальный механизм управления служит для эффективного использования ресурсов в махаллах, поддержки предпринимательских инициатив и повышения региональной экономической активности.

Ключевые слова: махалля, предпринимательство в махаллах, ремесла, управление развитием предпринимательства, экосистема.

Abstract. In this study, systematic, institutional, ecosystemic, and structural-functional approaches were used to scientifically substantiate the organizational and economic mechanisms of entrepreneurship development in makhallas. The systematic approach made it possible to analyze the makhalla entrepreneurial ecosystem as a holistic system consisting of interrelated entities, resources, institutions, and management mechanisms. The proposed conceptual management mechanism serves to effectively use resources in makhallas, support entrepreneurial initiatives, and increase regional economic activity.

Keywords: mahalla, entrepreneurship in makhallas, crafts, management of entrepreneurship development, ecosystem.

1.Kirish

Bugungi kunda mahalla nafaqat aholining yashash hududi, balki ijtimoiy-iqtisodiy faollikni shakllantiruvchi, inson kapitalini safarbar etuvchi va tadbirkorlik tashabbuslarini yuzaga chiqaruvchi muhim institut sifatida maydonga chiqmoqda. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning tub mohiyatida ham aholi daromadlarini oshirish, bandlikni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish va hududlarda mahalliy iqtisodiy o'sish manbalarini shakllantirish vazifasi turadi. Bu jarayonda mahalla tizimi bevosita aholiga eng yaqin bo'lgan boshqaruv bo'g'ini sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Mahallalarda tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish masalasi bugun oddiy iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash doirasidan ancha kengroq mazmun kasb etmoqda. Chunki har bir mahallada mavjud mehnat resurslari, kasbiy ko'nikmalar, oilaviy an'analar, bo'sh turgan imkoniyatlar, xizmat ko'rsatish ehtiyojlari va mahalliy bozor talabi o'ziga xosdir. Ana shu imkoniyatlarni to'g'ri aniqlash, ularni moliyaviy, tashkiliy va institutsional qo'llab-quvvatlash bilan uyg'unlashtirish mahalla iqtisodiyotini jonlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, tadbirkorlikni rivojlantirish faqat kredit, subsidiya yoki imtiyoz berish bilangina cheklanmaydi. Tadbirkorlik tashabbusi barqaror natija berishi uchun fuqaroning kasbiy tayyorgarligi, biznes-rejasi, mahsulot yoki xizmatga bozor talabi, infratuzilma holati, marketing imkoniyati va moliyaviy intizomi birgalikda baholanishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, mahallalarda tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishda tizimli va konseptual boshqaruv mexanizmini shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega. Bunda mahalla instituti, hokim yordamchisi, banklar, soliq organlari, ta'lim markazlari, jamoat tashkilotlari, raqamli platformalar va bozor subyektlari o'zaro bog'langan yagona ekotizim sifatida faoliyat yuritishi lozim.

2. Adabiyotlar sharhi

O'zbekistonda kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, innovatsion menejment, hududiy rivojlanish va tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish masalalari mamlakatimiz iqtisodchi-olimlari B.Yu.Xodiyev [1], M.Sharifxo'jayev, M.S.Qosimova, D.N.Rahimova, Yo.Abdullayev [2], B.K.G'oyibnazarov [5], S.K.Salayev [6], Sh.J.Ergashxodjayeva [7], U.V.Gafurov [4,8,11], D.S.Alimatova [9], M.M.Ibragimova [10] va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida keng tadqiq qilingan. Ushbu tadqiqotlarda kichik biznesni boshqarish, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, mintaqaviy rivojlanish, investitsiyalarni jalb etish, innovatsion marketing, davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari, ekonometrik modellash va prognozlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Mahallalarda tadbirkorlik, hunarmandchilik, oilaviy biznes, kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash masalalari B.Berkinov, U.V.Gafurov, I.M.Xasanov [12], N.N.Ernazarova [13], T.N.Mamayev [14], O.X.Mahmudov [15] kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida o'rganilgan. Mazkur tadqiqotlarda mahalla darajasida tadbirkorlikni rivojlantirishning amaliy jihatlari, oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, hunarmandchilik salohiyatidan foydalanish, kambag'allikni qisqartirish va mahalliy iqtisodiy faollikni oshirish yo'nalishlari yoritilgan.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy tadqiqotlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, hududiy rivojlanish, innovatsion menejment, mahalla institutining ijtimoiy funksiyalari va oilaviy tadbirkorlik

masalalari keng yoritilgan bo'lsa-da, mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirishni boshqarish metodologiyasini kompleks takomillashtirish masalalari yetarli darajada tizimli tadqiq etilmagan.

3. Metodologiya.

Mazkur tadqiqotda mahallalarda tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ilmiy asoslash maqsadida tizimli, institutsional, ekotizimli va struktur-funksional yondashuvlardan foydalanildi. Tizimli yondashuv mahalla tadbirkorlik ekotizimini o'zaro bog'liq subyektlar, resurslar, institutlar va boshqaruv mexanizmlaridan iborat yaxlit tizim sifatida tahlil qilish imkonini berdi.

Institutsional yondashuv orqali mahalla instituti, hokim yordamchisi, moliya tashkilotlari, ta'lim muassasalari, jamoat tashkilotlari va raqamli platformalarning tadbirkorlikni rivojlantirishdagi vazifalari aniqlandi. Struktur-funksional tahlil asosida ekotizim ishtirokchilarining funksiyalari, ular o'rtasidagi vertikal, gorizontal va qaytuvchi aloqalar mazmunan baholandi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, mantiqiy tahlil va modellashtirish usullaridan foydalanildi. Xususan, tadbirkorlik ekotizimlari nazariyasi doirasida Daniel Isenberg va Erik Stam tomonidan ilgari surilgan ilmiy yondashuvlar mahalla darajasida tadbirkorlikni rivojlantirish mexanizmlarini asoslashda nazariy-metodologik manba sifatida qo'llanildi.

Shuningdek, tadqiqotda resurslar sirkulyatsiyasi, axborot almashinuvi, moliyaviy oqimlar, raqamli monitoring va institutsional muvofiqlashtirish jarayonlari tahlil qilindi. Bu esa mahalla tadbirkorlik ekotizimining o'zini o'zi rivojlantiruvchi, moslashuvchan va barqaror ochiq tizim sifatida shakllanishini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

4. Tahlil va natijalar

Konseptual boshqaruv mexanizmining muhim tarkibiy qismi mahalla tadbirkorlik salohiyatini integral baholash hisoblanadi. Chunki samarali boshqaruv uchun qaysi mahallada qaysi yo'nalish rivojlantirilishi, qayerda moliyaviy resurs zarurligi, qayerda o'qitish ustuvorligi, qayerda infratuzilma muammosi mavjudligi ilmiy asosda aniqlanishi kerak. Integral baholashda tadbirkorlik subyektlari soni, yangi tashkil etilgan bizneslar, oilaviy tadbirkorlik ulushi, aholi bandligi, ishsizlik darajasi, kreditlardan foydalanish, subsidiya va grantlar samaradorligi, hunarmandchilik va kasanachilik darajasi, infratuzilma ta'minoti, bozorga chiqish imkoniyati, raqamli xizmatlardan foydalanish va mahalliy daromadlar o'sishi kabi indikatorlardan foydalanish mumkin. Ushbu indikatorlar asosida har bir mahalla bo'yicha tadbirkorlik rivojlanish indeksi ishlab chiqiladi. Indeks natijalari mahallalarni "yuqori salohiyatli", "o'rta salohiyatli", "past salohiyatli" va "qo'llab-quvvatlashga muhtoj" guruhlariga ajratish imkonini beradi.

Mahallalarda tadbirkorlikni boshqarish samaradorligini oshirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmini ham takomillashtirish zarur. Amaldagi tajribada imtiyozli kredit va subsidiyalar ayrim hollarda real biznes salohiyatidan ko'ra ehtiyoj darajasi yoki murojaat faolligi asosida taqsimlanadi. Bu esa ajratilgan resurslarning to'liq iqtisodiy natija bermasligiga olib kelishi mumkin. Shu sababli moliyalashtirish "ehtiyoj — salohiyat — biznes-reja — monitoring — natija" zanjiri asosida tashkil etilishi lozim. Kredit yoki subsidiya ajratilishidan oldin fuqaroning kasbiy tayyorgarligi, mahsulot yoki

xizmatga bozor talabi, oilaviy mehnat resurslari, infratuzilma imkoniyati va moliyaviy intizomi baholanishi kerak. Ajratilgan mablag'dan keyin esa tadbirkorga kamida dastlabki 6–12 oy davomida maslahat, marketing, soliq, buxgalteriya va bozorga chiqish bo'yicha hamrohlik qilish tizimi yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiq. Chunki tadbirkorlikni boshlashdan ko'ra uni barqaror yuritish murakkabroq jarayondir.

Quyidagi 1-rasmda "O'zbekistonda mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirishning konseptual boshqaruv mexanizmi" tizimli va o'zaro bog'liq elementlar asosida ifodalangan. Mazkur model mahalla tadbirkorligini oddiy iqtisodiy faoliyat emas, balki tashqi muhit, subyektlar, boshqaruv vositalari, raqamli monitoring, baholash va strategik qarorlar bilan bog'liq murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida talqin etadi. Mazkur grafikda ifodalangan konseptual boshqaruv mexanizmi mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirishning integrallashgan, raqamlashtirilgan, natijadorlikka yo'naltirilgan va qayta aloqa mexanizmi bilan boyitilgan modelidir. Uning asosiy ilmiy afzalligi – tashqi muhit, subyektlar, boshqaruv instrumentlari, monitoring, baholash, prognozlash va strategik qarorlar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqligini aniq ko'rsatib berganidadir. Amaliy jihatdan esa mazkur model mahallalarda manzilli qo'llab-quvvatlash, resurslardan oqilona foydalanish, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv qarorlari qabul qilish hamda hududiy iqtisodiy faollikni oshirish uchun puxta metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Konseptual mexanizmida mahalla mikroklasterlarini shakllantirish alohida o'rin tutadi. Har bir mahallaning iqtisodiy ixtisoslashuvi turlicha bo'lishi mumkin: ayrim mahallalarda hunarmandchilik, boshqalarida chorvachilik, parrandachilik, tikuvchilik, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, maishiy xizmat, savdo, turizm yoki raqamli xizmatlar rivojlanishi mumkin. Shu sababli "bir mahalla – bir ustuvor yo'nalish" yoki "bir mahalla – bir mahsulot" tamoyilini qo'llash imkoniyatlari aniqlanishi lozim.



1-rasm. Mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirishning konseptual boshqaruv mexanizmi

Manba: Muallif ishlanmasi.

Mikroklaster yondashuvi orqali mahalladagi bir xil yoki o'zaro bog'liq faoliyat yurituvchi tadbirkorlar bir tizimga birlashtiriladi, ularga umumiy xomashyo, o'quv kursi, brend, marketing, logistika va sotuv kanallari bo'yicha ko'mak beriladi. Bu esa yakka tartibdagi kichik bizneslarning bozor raqobatiga bardoshlilikini oshiradi, mahsulot tannarxini kamaytiradi va mahalliy brend shakllanishiga xizmat qiladi.

Mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirishda raqamli boshqaruv vositalaridan foydalanish konseptual mexanizmning ajralmas qismi bo'lishi kerak. Raqamli platforma orqali mahalladagi tadbirkorlik subyektlari, biznes boshlash istagidagi fuqarolar, kredit va subsidiya oluvchilar, o'quv kurslari ishtirokchilari, mavjud muammolar, infratuzilma ehtiyojlari va loyihalar natijalari yagona bazada yuritiladi. Bu platforma mahalla, tuman hokimligi, bank, soliq organlari va boshqa tashkilotlar o'rtasida axborot almashinuvini tezlashtiradi. Raqamli monitoring orqali qaysi loyiha ishlayotgani, qaysi biri to'xtab qolgani, qayerda qo'shimcha ko'mak zarurligi, qaysi yo'nalish eng ko'p ish o'rni yaratgani yoki daromad bergani aniqlanadi. Natijada boshqaruv qarorlari subyektiv baholashga emas, balki dalillarga asoslangan tahlilga tayangan holda qabul qilinadi.

Mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirishning konseptual mexanizmi faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan cheklanmasligi kerak. Chunki mahalla sharoitida tadbirkorlik ijtimoiy natijalar bilan ham bevosita bog'liq. Tadbirkorlik rivojlanishi natijasida oilalar daromadi oshadi, ishsizlik kamayadi, yoshlar va ayollar iqtisodiy faolligi kuchayadi, kambag'allik darajasi pasayadi, aholining o'z mehnati orqali daromad topishga bo'lgan motivatsiyasi ortadi. Shu bois baholash tizimida iqtisodiy indikatorlar bilan birga ijtimoiy indikatorlar ham qo'llanishi lozim. Jumladan, yangi ish o'rinlari soni, tadbirkorlikka jalb etilgan ayollar ulushi, yosh tadbirkorlar soni, kam ta'minlangan oilalarning daromad manbalariga ega bo'lishi, norasmiy bandlikdan rasmiy faoliyatga o'tgan fuqarolar soni, kasb-hunar o'qitishdan keyin biznes boshlaganlar ulushi kabi ko'rsatkichlar boshqaruv samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Takomillashtirilgan konseptual boshqaruv mexanizmini amalga oshirishda teskari aloqa tizimi ham muhim o'rin tutadi. Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar muntazam aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha tezkor choralar ko'rilishi zarur. Masalan, kredit ajratishdagi kechikishlar, garov muammosi, soliq va ro'yxatdan o'tish tartiblaridagi qiyinchiliklar, infratuzilma yetishmovchiligi, mahsulot sotishdagi muammolar, xomashyo narxining oshishi yoki bilim va tajriba yetishmasligi tadbirkorlik faoliyatining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun mahalla darajasida "muammo — sabab — mas'ul tashkilot — yechim — muddat — natija" zanjiri asosida ishlaydigan monitoring tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Bu tizim tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonini faqat boshlang'ich qo'llab-quvvatlash emas, balki doimiy boshqaruv va hamrohlik jarayoniga aylantiradi.

Mazkur konseptual mexanizmi takomillashtirish natijasida mahallalarda tadbirkorlikni boshqarishning yangi modeli shakllanadi. Ushbu modelning mohiyati shundan iboratki, mahalla tadbirkorlik tashabbuslarini aniqlovchi va safarbar etuvchi asosiy mikroinstitutga, hokimlik muvofiqlashtiruvchi boshqaruv markaziga, banklar moliyaviy hamkor subyektga, soliq organlari rasmiylashtirish va maslahat beruvchi institutga, o'quv markazlari inson kapitalini rivojlantiruvchi bo'g'inga, bozor subyektlari esa mahsulot va xizmatlarni realizatsiya qilish zanjiriga aylanadi. Natijada mahalla

tadbirkorligi “yakka tashabbus — kredit — faoliyat” ko‘rinishidagi sodda modeldan “ehtiyojni aniqlash — salohiyatni baholash — resurslarni birlashtirish — biznesni yo‘lga qo‘yish — bozorga chiqarish — monitoring qilish — natijani baholash” ko‘rinishidagi kompleks boshqaruv modeliga o‘tadi.

Ushbu metodologik yondashuvning ilmiy ahamiyati shundaki, u mahallani passiv ijtimoiy boshqaruv obyekti sifatida emas, balki iqtisodiy faollikni shakllantiruvchi, resurslarni safarbar etuvchi va aholi tadbirkorlik tashabbuslarini institutsional qo‘llab-quvvatlovchi boshqaruv subyekti sifatida talqin etadi. Amaliy ahamiyati esa mahallalarda ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirish, aholini tadbirkorlikka jalb etish, mahalliy infratuzilmani yaxshilash va hududiy iqtisodiy o‘rishni ta‘minlashga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirishni boshqarish metodologiyasini takomillashtirishda “mahalla yettiligi” faoliyatini tadbirkorlik ekotizimiga yo‘naltirish, hokim yordamchisi institutini iqtisodiy diagnostika va biznes-rejalashtirish markaziga aylantirish, “Raqamli mahalla” platformasi orqali ma‘lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash instrumentlarini KPI bilan bog‘lash hamda mahallalarni iqtisodiy salohiyatiga ko‘ra toifalash asosiy yo‘nalishlar sifatida qaralishi lozim. Bu yondashuv mahalla darajasida tadbirkorlikni rivojlantirishni boshqarishda an‘anaviy ma‘muriy usullardan natijaviy, raqamlashgan va resurslarga asoslangan metodologiyaga o‘tishni ta‘minlaydi.

5.Xulosa

Xulosa qilib aytganda, mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirishning konseptual boshqaruv mexanizmini takomillashtirish O‘zbekiston sharoitida mahalla institutining iqtisodiy imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Taklif etilayotgan mexanizm institutsional muvofiqlashtirish, ijtimoiy kapitaldan foydalanish, mahalliy resurslarni safarbar etish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni natijadorlik bilan bog‘lash, mikroklasterlarni rivojlantirish, raqamli monitoringni joriy etish va boshqaruv qarorlarini aniq indikatorlar asosida qabul qilishga tayanadi. Ushbu yondashuv mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirishni fragmentar chora-tadbirlar majmuasidan tizimli, raqamli, natijador va strategik boshqaruv jarayoniga aylantiradi. Natijada mahallalar aholi bandligini ta‘minlash, oilaviy biznesni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish, mahalliy byudjet daromadlarini kengaytirish va hududiy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda faol iqtisodiy o‘rish nuqtalariga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharifxo‘jayev M., Abdullayev Yo. Menejment: darslik. — Toshkent, 2003. — 37 b.;
2. Abdullayev Yo. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari: 100 savolga 100 javob. — Toshkent: Mehnat, 2002. — 157 b.;
3. Xodiyev B. Yu. O‘zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlik rivojini ekonometrik modellashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2000. — 42 b.;

4. G'ofurov A. Kichik xo'jalik yurituvchi tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishning mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari : monografiya. — Farg'ona, 2008. — 74 b.;
 5. Boltaboyev M. R., G'oyibnazarov B. K., Otajonov Sh. I. Kichik biznes va tadbirkorlik : o'quv qo'llanma. — Toshkent, 2011. — 43 b.;
 6. Salayev S. K. Kichik biznes rivojlanish tendensiyalarini modellashtirish va bashoratlash : iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2007. — 14 b.;
 7. Ergashxodjayeva Sh. J. Innovatsion marketing. — Toshkent : Cho'lpon, 2014. — 178 b.;
 8. Gafurov U. V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish : iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi. — Toshkent : O'zBMA, 2017. — 274 b.;
 9. Alimatova D. S. Mintaqalarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga investitsiyalarni jalb etishni takomillashtirish : iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent : TMI, 2018. — 77 b.;
 10. Ibragimova M. M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati samaradorligini tarkibiy o'zgarishlar asosida oshirish : iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent : TDIU, 2018. — 54 b.
 11. Gafurov U. V. Mahallalarda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning amaliy jihatlari // Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar. — 2025. — № VI. — B. 794–799.;
 12. Xasanov I. M. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari // ReFocus. — 2022. — № 1.;
 13. Ernazarova N. N. Oilaviy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2021. — № 3. — B. 253–258.;
 14. Mamayev T. N. Tadbirkorlikni yanada rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish // JMBM. — 2023. — № 11.;
- Mahmudov O. X. Oilalarda kambag'allikni qisqartirish omillari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2021. — № 6. — B. 267–276.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

